
№6 2026

ISSN: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL



FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR
ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH
scientific-practical and methodological journal



№6 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:

Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIRIYAT VA EKSPERT KENGASHI

Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Yelena Yevgeyevna – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina Natalya Yuryevna– psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva Barno Sayfutdinovna – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov Bahodir Baxshullayevich – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova Oksana Gennadevna– pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Akramova Gulbahor Renatovna – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev Muxiddin Muxammatovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova Nurjahon Zuxuriddinovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov Xazrat Xusenovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov Mirmuhsin Rustamovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ravshanov Lochinbek Urinovich – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o‘g‘li – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva Guldona Mamajonovna – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori, professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
G‘ayipova Nargiza Anorbayevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova Dilafruz Bozorovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Yelena Gennadiyevna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Жексенбаева Гульнур – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Kudratova Lola Ravshanovna – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov Nodirjon Azamatovich – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova Mehriniso Musinovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich - filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Xalilova Ruxsora Raupovna – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Shoxruz Faxriddin o‘g‘li – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova Feruza Xayatovna – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

Texnik muharrir
Salimova Aziza Zoyirovna

Ingliz tili muharriri
Abduraximov Doniyor Abdusaid o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

РЕДАКЦИОННО-ЭКСПЕРТНЫЙ СОВЕТ

Реджеп Узюрек – доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Елена Евгеньевна – доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Наталья Юрьевна – кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Барно Сайфутдиновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Гульсанам Неъматовна – доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Баходир Бахшуллаевич – доктор педагогических наук, профессор
Филиппова Оксана Геннадьевна – доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Абдазимов Азизжан Абдусабирович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Мирзаева Фарохат Одилжоновна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Акрамова Гульбахор Ренатовна – доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев Мухиддин Мухамматович – доктор психологических наук (DSc), доцент
Абдуллаева Дилбар Убайдуллаевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Нуржахон Зухуриддиновна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Фарфиева Камола Адхамджановна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Наргис Батировна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Жабборов Хазрат Хусенович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов Мирмухсин Рустамович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева Саодат Меликузиевна – доктор психологических наук (DSc), профессор
Равшанов Лочинбек Уринович – доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева Мавлюда Ибрагимовна – доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов Зубайдулло Изомович – доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбонбоев Азимбек Назирбой угли – доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Гулдона Мамажоновна – доктор исторических наук, профессор
Давлатова Саодат Тиловбердиевна – доктор исторических наук, профессор
Курбонова Манзила Бозоровна – кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Бехруз Собирович – доктор философских наук, профессор
Мираширова Наргиза Анваровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, профессор
Гайипова Наргиза Анорбаевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Дилафруз Бозоровна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Елена Геннадьевна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Жексенбаева Гульнур – доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Кудратова Лола Равшановна – доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич – доктор философии (PhD) по психологическим наукам
Жалилов Нодиржон Азаматович – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов Анвар Абдусаттор угли – доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова Мехринисо Мусиновна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Рахматуллаев Шарофиддин Нематуллаевич – доктор философии (PhD) по филологическим наукам
Халилова Рухсора Рауповна – доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Шавкат Улугбекович – доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Шохруз Фахриддин угли – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Жонибек Шодиевич – доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Феруза Хаятовна – кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

Технический редактор
Салимова Азиза Зойировна

Редактор английского языка
Абдурахимов Дониёр Абдусаид угли

EDITOR-IN-CHIEF

Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL AND EXPERT BOARD

Rejep Uzyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Yelena Yevgeyevna– Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina Natalya Yuryevna – Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva Barno Sayfutdinovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Ibragimova Gulsanam Nematovna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov Bakhodir Bakhshullaevich – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova Oksana Gennadevna– Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Abdazimov Azizjan Abdusabirovich– Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Mirzaeva Faroxat Odiljonovna – Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Akramova Gulbahor Renatovna– Doctor of Science (DSc) in Pedagogy, Professor
Bafaev Muxiddin Muxammatovich– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Abdullaeva Dilbar Ubaydullaevna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ismoilova Nurjakhon Zukhuriddinovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Farfiyeva Kamola Adhamdjanovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Atabaeva Nargis Batirovna– Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Jabborov Khazrat Khusenovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Akramov Mirmukhsin Rustamovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Tuychieva Saodat Melikuziyevna – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Ravshanov Lochinbek Urinovich – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Professor
Gadoyeva Mavlyuda Ibragimovna– Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich – Doctor of Science (DSc) in Philology, Professor
Qurbonboev Azimbek Nazirboy ugli – Doctor of Science (DSc) in Psychology, Associate Professor
Taniyeva Guldona Mamajonovna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova Saodat Tilovberdievna – Doctor of Historical Sciences, Professor
Qurbonova Manzila Bozorovna – Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev Bexruz Sobirovich – Doctor of Philosophical Sciences, Professor
Mirashirova Nargiza Anvarovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Professor
Gayipova Nargiza Anorbayevna– Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Botirova Dilafruz Bozorovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Alimova Yelena Gennadiyevna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Gulnur Zheksenbaeva – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology (Kazakhstan)
Kudratova Lola Ravshanovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Ismatulloev Abdullo Nasrulloevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology
Jalilov Nodirjon Azamatovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Vaxobov Anvar Abdusattor ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy, Associate Professor
Raxmatova Mehriniso Musinovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Rahmatullayev Sharofiddin Nematullayevich – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology
Khalilova Rukhsora Raupovna – Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Bobojonov Shavkat Ulug‘bekovich – Doctor of Philosophy (PhD) in History, Associate Professor
Sharipov Shokhruz Fakhriddin ugli – Doctor of Philosophy (PhD) in History
Butayev Jonibek Shodievich– Doctor of Philosophy (PhD) in History
Bobojonova Feruza Khayatovna – Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Responsible editor
Khayitov Khayotjon Khikmat ugli

Technical editor
Salimova Aziza Zoyirovna

English language editor
Abduraximov Doniyor Abdusaid ugli

GLOBALLASHUV SHAROITIDA IJTIMOIY HIMOYA TERMINOLOGIYASINING TRANSFORMATSIYASI VA UNI MILLIY TERMIN SHAKLIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI

Elmirzayeva Maftuna Do‘smurod qizi
Qarshi davlat universiteti, Tillar fakulteti,
Amaliy ingliz tili kafedrasi v.b. dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: maftunaelmirzayeva7@gmail.com
ORCID: 0009-0007-3148-5898

Annotatsiya. Maqolada globallashuv sharoitida ingliz tilidan o‘zbek tiliga kirib kelayotgan ijtimoiy himoya terminlarining qanday o‘zgarishga uchrashi va ularni milliy termin shaklida takomillashtirish muammolari tahlil qilinadi. Tadqiqot ijtimoiy himoya terminologiyasining sovet davri kalkalari, xalqaro tashkilotlar hujjatlari orqali kirgan anglitsizmlar hamda milliy so‘z yasash vositalari asosida shakllangan qatlamlarini qiyosiy o‘rganadi. Natijada terminlarning transformatsiyasida kalkalash, transliteratsiya, semantik kengayish va torayish, tavsifiy tarjima hamda funksional moslashtirish yetakchi ekani ko‘rsatiladi. Milliy termin yaratishda aniqlik, tizimlilik, bir ma’nolilik, tilning ichki imkoniyatlariga tayanish va me’yoriy hujjatlar bilan muvofiqlik mezonlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy himoya, terminologiya, globallashuv, transformatsiya, kalka, anglitsizm, milliy termin, unifikatsiya, tarjima, ekvivalentlik.

THE TRANSFORMATION OF SOCIAL PROTECTION TERMINOLOGY IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION AND CHALLENGES OF ITS DEVELOPMENT WITHIN THE NATIONAL TERMINOLOGICAL SYSTEM

Abstract. The article analyses how social protection terms entering Uzbek from English change under globalization and examines the problems of improving them as national terms. The study compares the layers of Uzbek social protection terminology formed through Soviet-era calques, anglicisms introduced via documents of international organizations, and national word-formation means. The results show that calquing, transliteration, semantic broadening and narrowing, descriptive translation and functional adaptation are the leading mechanisms of transformation. Criteria for creating national terms are proposed: precision,

systematicity, monosemy, reliance on the internal resources of the language and consistency with normative documents.

Keywords: social protection, terminology, globalization, transformation, calque, anglicism, national term, unification, translation, equivalence.

ТРАНСФОРМАЦИЯ ТЕРМИНОЛОГИИ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ И ПРОБЛЕМЫ ЕЁ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ В РАМКАХ НАЦИОНАЛЬНОЙ ТЕРМИНОСИСТЕМЫ

Аннотация. В статье анализируется трансформация терминов социальной защиты, проникающих из английского языка в узбекский в условиях глобализации, и рассматриваются проблемы их совершенствования в форме национальных терминов. Сопоставительно изучаются пласты узбекской терминологии социальной защиты, сформированные кальками советского периода, англицизмами из документов международных организаций и национальными словообразовательными средствами. Показано, что ведущими механизмами трансформации являются калькирование, транслитерация, семантическое расширение и сужение, описательный перевод и функциональная адаптация. Предложены критерии создания национальных терминов: точность, системность, однозначность, опора на внутренние ресурсы языка и соответствие нормативным документам.

Ключевые слова: социальная защита, терминология, глобализация, трансформация, калька, англицизм, национальный термин, унификация, перевод, эквивалентность.

KIRISH

Ijtimoiy himoya bugungi kunda faqat davlatning ichki siyosati emas, balki xalqaro hamkorlik, inson huquqlari va barqaror rivojlanish masalalari bilan uzviy bog‘liq sohaga aylandi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 22-moddasida “Everyone, as a member of society, has the right to social security and is entitled to realization, through national effort and international co-operation and in accordance with the organization and resources of each State, of the economic, social and cultural rights indispensable for his dignity and the free development of his personality” deb belgilangan [1]. Mazkur me’yorda ijtimoiy ta’minot huquqi milliy sa’y-harakat va xalqaro hamkorlik bilan birga tilga olingani bejiz emas: ijtimoiy himoya tushunchalari dastlabdanoq xalqaro muloqot doirasida shakllangan.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

O‘zbekiston ham bu jarayonning faol ishtirokchisidir. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida “O‘zbekiston - boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat” ekani qayd etilgan [2]. So‘nggi yillarda ijtimoiy himoya tizimini isloh qilishga qaratilgan qator hujjatlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 14-oktabrdagi PQ-539-son “Aholining ijtimoiy himoya olish huquqi va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Islohotlar bilan birga yangi tushunchalar, ularni ifodalovchi yangi terminlar ham paydo bo‘lmoqda.

Bu terminlarning katta qismi xalqaro tashkilotlar hujjatlari, loyihalar va hisobotlar orqali, asosan, ingliz tilidan kirib kelmoqda. Xalqaro mehnat tashkilotining 2012-yildagi ijtimoiy himoyaning minimal kafolatlari to‘g‘risidagi 202-son Tavsiyasi kabi hujjatlar milliy dasturlarga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda [3]. Natijada o‘zbek tilida bir tushuncha uchun bir nechta variant qo‘llanishi, inglizcha atamaning so‘zma-so‘z tarjimasi yoki aksincha, uning mazmunini to‘liq bermaydigan eski sovet davri muqobilining saqlanib qolishi kabi holatlar kuzatilmoqda.

Shu sababli globallashuv sharoitida ijtimoiy himoya terminologiyasining qanday transformatsiyaga uchrayotganini aniqlash va uni milliy termin shaklida takomillashtirish yo‘llarini ko‘rsatish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Maqolaning maqsadi ingliz tilidan kirib kelayotgan ijtimoiy himoya terminlarining o‘zbek tilida o‘zgarish mexanizmlarini aniqlash va milliy termin yaratish mezonlarini asoslashdan iborat.

Terminologiya nazariyasida termin uzoq vaqt bir ma’noli, emotsional bo‘yoqsiz va tizimga bo‘ysunuvchi birlik sifatida talqin qilib kelingan. O‘zbek tilshunosligida ham termin muayyan fan yoki soha tushunchasini aniq ifodalovchi so‘z yoki so‘z birikmasi sifatida ta’riflanadi [4]. Biroq zamonaviy terminologiyada bu qarash kengaytirildi. M.T. Kabre terminni faqat me’yoriy birlik emas, balki muayyan kommunikativ vaziyatda yashovchi, shu vaziyatga qarab o‘zgarishi mumkin bo‘lgan til birligi sifatida ko‘rib chiqadi [5]. R. Temmerman esa sotsiokognitiv yondashuv asosida ko‘plab tushunchalar qat’iy chegaraga ega emasligini, terminlar vaqt o‘tishi bilan rivojlanishi va metaforik yo‘l bilan ham shakllanishi mumkinligini ko‘rsatadi [7]. Ijtimoiy himoya terminlari aynan shunday dinamik qatlamga kiradi: ular ijtimoiy siyosat, huquq va iqtisod o‘zgarishi bilan birga o‘zgarib boradi.

Terminlarni tarjima qilish masalasida Y.A. Nayda va Ch. Teberning qarashlari muhim. Ular tarjimani “reproducing in the receptor language the closest natural equivalent of the source-language message, first in terms of meaning and secondly

in terms of style” deb ta’riflaydi [8]. Bu ta’rifdagi “eng yaqin tabiiy muqobil” tushunchasi ijtimoiy himoya terminlari uchun ham asosiy mezon bo‘la oladi: termin aniq bo‘lishi bilan birga, o‘zbek tilida tabiiy eshitilishi ham kerak. P. Nyumark semantik va kommunikativ tarjimani farqlab, birinchisi manba matn mazmuniga, ikkinchisi o‘quvchining tushunishiga yo‘naltirilishini ko‘rsatadi [9]. Huquqiy-me’yoriy hujjatlarda semantik aniqlik, aholiga mo‘ljallangan axborot materiallarida esa kommunikativ tushunarlilik ustuvor bo‘ladi.

O‘zbek terminologiyasida milliy termin yaratish masalasi A. Madvaliyev ishlarida izchil yoritilgan. Olim o‘zbek terminologiyasining shakllanishida o‘zlashma va kalkalarning o‘rni, terminlarni me’yorlashtirish va ularni lug‘atlarda berish masalalarini tahlil qiladi [5]. Ijtimoiy himoya terminlarining ingliz va o‘zbek tillaridagi struktur-semantik xususiyatlari, ularni tartibga solishning lingvistik asoslari esa muallifning avvalgi tadqiqotlarida o‘rganilgan [11]. Biroq globallashuv sharoitida terminlarning o‘zgarish mexanizmlari va milliy termin yaratish mezonlari alohida tizimli tahlilni talab qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot materialini ingliz va o‘zbek tillaridagi ijtimoiy himoya terminlari tashkil etdi. Ular xalqaro tashkilotlar hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari, ingliz-o‘zbek va o‘zbek-ingliz lug‘atlari hamda muallif tomonidan tuzilgan ikki tilli lug‘atdan olindi. Tahlilda qiyosiy-chog‘ishtirma, tarixiy-etimologik, komponent tahlil, semantik maydon tahlili va tarjima tahlili usullaridan foydalanildi.

Tahlil uch bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda terminlar kelib chiqishiga ko‘ra uch qatlamga ajratildi: sovet davrida rus tili orqali kirgan kalkalar, mustaqillik yillarida xalqaro hujjatlar orqali kirgan anglitsizmlar hamda o‘zbek tilining o‘z so‘z yasash vositalari bilan yaratilgan birliklar. Ikkinchi bosqichda har bir inglizcha terminning o‘zbekcha muqobili qanday transformatsiya natijasida hosil bo‘lgani aniqlandi. Uchinchi bosqichda muqobillar aniqlik, tizimlilik, bir ma’nolilik va me’yoriy hujjatlarga muvofiqlik mezonlari bo‘yicha baholandi.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tilidagi ijtimoiy himoya terminologiyasi bir necha tarixiy qatlamdan iborat. Sovet davrida ijtimoiy-huquqiy terminlar asosan rus tili orqali shakllangan: «социальное обеспечение» – ijtimoiy ta’minot, «трудовой стаж» – mehnat staji, «пособие по инвалидности» – nogironlik nafaqasi. Bu terminlar o‘zbek tiliga chuqur singib ketgan va hozir ham faol qo‘llanadi. Mustaqillik yillarida esa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik kengaygani sari ingliz tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki kalka yo‘li bilan yangi terminlar kira boshladi: inclusion – inklyuzivlik, empowerment – imkoniyatlarni kengaytirish, vulnerable groups – ehtiyojmand guruhlar.

Natijada bir tushuncha uchun turli davrlarda shakllangan bir nechta variant yonma-yon qo‘llanmoqda. Masalan, inglizcha social protection termini ba’zan “ijtimoiy himoya”, ba’zan “ijtimoiy yordam” yoki “ijtimoiy ta’minot” deb beriladi. Holbuki, social protection keng tizimni, social assistance esa uning bir qismini, ya’ni ehtiyojmandlarga beriladigan yordamni, social insurance badallarga asoslangan sug‘urta mexanizmini bildiradi. Bu terminlarni bir-birining o‘rnida ishlatish tushunchalar ierarxiyasini buzadi.

Globallashuv sharoitida terminlarning o‘zgarishi besh asosiy mexanizm orqali amalga oshmoqda. Ular quyidagi jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval. Ijtimoiy himoya terminlarining transformatsiya mexanizmlari

Mexanizm	Inglizcha termin	O‘zbekcha shakl	Izoh
Transliteratsiya	pension; audit	pensiya; audit	fonetik va morfologik moslashuv
Kalkalash	social insurance; income support	ijtimoiy sug‘urta; daromadni qo‘llab-quvvatlash	tarkibiy qismlar so‘zma-so‘z beriladi
Semantik torayish	social protection; welfare system	ijtimoiy yordam; ijtimoiy yordam tizimi	keng tushuncha tor ma’noda beriladi
Semantik kengayish	allowance; benefit; grant	nafaqa; yordam puli; imtiyoz; kompensatsiya	bitta termin bir nechta muqobilga ajraladi
Funksional moslashtirish	public assistance; welfare payments	kam ta’minlanganlarga subsidiya; ijtimoiy yordam pullari	mazmun milliy tizimga moslab beriladi

Jadvaldan ko‘rinadiki, eng ko‘p muammo semantik torayish va kengayish holatlarida yuzaga keladi. Masalan, welfare system “ijtimoiy yordam tizimi” deb tarjima qilinganda uning tarkibidagi “farovonlik” semasi yo‘qoladi. Aksincha, inglizcha benefit so‘zi ijtimoiy himoya kontekstida “nafaqa, moddiy yordam” ma’nosini bildirsa, iqtisodiy va umumiy nutqda “foyda, manfaat” ma’nosida qo‘llanadi. Shunga o‘xshash holat support so‘zida ham kuzatiladi: financial support – moliyaviy yordam, child support – aliment, emotional support – ruhiy qo‘llab-quvvatlash. Lug‘atlarda bunday ma’nolar ko‘pincha farqlanmagan holda beriladi va tarjimonni xatoga olib boradi.

Ikkinchi muhim natija madaniy-institutsional tafovutlar bilan bog‘liq. O‘zbek tilidagi ayrim ijtimoiy himoya tushunchalari milliy tizimga xos bo‘lib, ingliz tilida to‘liq muqobilga ega emas. Masalan, “mahalla” ijtimoiy yordam ko‘rsatuvchi jamoaviy institut sifatida ham faoliyat yuritadi, inglizcha neighbourhood esa faqat hududiy birlikni bildiradi. Aksincha, inglizcha food stamps kabi aniq dastur nomlari o‘zbek tilida tayyor muqobilga ega bo‘lmagani uchun tavsifiy yo‘l bilan beriladi. Bunday hollarda transliteratsiya ham, so‘zma-so‘z tarjima ham tushunchani to‘liq yetkaza olmaydi.

Uchinchi natija konstitutsiyaviy terminlar bilan bog‘liq. Konstitutsiyada “ijtimoiy davlat” termini qo‘llanadi, inglizcha matnda unga social state to‘g‘ri keladi. Biroq ilmiy va publitsistik matnlarda welfare state birikmasi ham ko‘pincha “ijtimoiy davlat” yoki “farovon davlat” deb beriladi. Ikkala termin bir tushunchani anglatmaydi: social state konstitutsiyaviy tamoyilni, welfare state esa muayyan iqtisodiy-siyosiy modelni bildiradi. Shu sababli welfare state uchun “farovonlik davlati” varianti izoh bilan berilishi, “ijtimoiy davlat” esa konstitutsiyaviy termin sifatida saqlanishi maqsadga muvofiq.

Tahlil asosida ingliz tilidan kirayotgan ijtimoiy himoya terminlarini milliy termin shaklida takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. Quyidagi jadvalda ulardan ayrimlari keltirilgan. Jadvaldagi tavsiyalar muallifning taklifi bo‘lib, rasmiy me’yor sifatida qabul qilinishi uchun vakolatli terminologik tuzilmalar muhokamasidan o‘tishi lozim.

2-jadval

Ijtimoiy himoya terminlarini milliy termin shaklida takomillashtirish bo‘yicha takliflar

Inglizcha termin	Uchraydigan variantlar	Muammo	Taklif etilayotgan milliy termin
social protection	ijtimoiy himoya; ijtimoiy yordam; ijtimoiy ta’minot	keng tizim tor ma’noda beriladi	ijtimoiy himoya (umumlashtiruvchi termin)
social assistance	ijtimoiy yordam; moddiy yordam	social protection bilan aralashtiriladi	ijtimoiy yordam (himoyaning bir turi)
social insurance	ijtimoiy sug‘urta; ijtimoiy ta’minot	badal asosidagi mexanizm ko‘rinmaydi	ijtimoiy sug‘urta

https://fanlararotadqiqotlar.uz/ ISSN: 3093-9240

Inglizcha termin	Uchraydigan variantlar	Muammo	Taklif etilayotgan milliy termin
welfare state	ijtimoiy davlat; farovon davlat	konstitutsiyaviy termin bilan aralashadi	farovonlik davlati (izoh bilan)
benefit (ijtimoiy kontekstda)	nafaqa; foyda; imtiyoz	ko‘p ma’nolilik	nafaqa; konkret turida aniqlovchi bilan
child support	bola nafaqasi; aliment	huquqiy va ijtimoiy ma’no aralashadi	aliment (huquqiy kontekstda)
vulnerable groups	zaif qatlamlar; ehtiyojmand guruhlar	“zaif” so‘zining salbiy bahosi	ehtiyojmand guruhlar

Jadvaldagi takliflar bir necha tamoyilga tayanadi. Birinchidan, umumiy va xususiy tushunchalar ierarxiyasi saqlanishi kerak: ijtimoiy himoya – umumiy, ijtimoiy yordam va ijtimoiy sug‘urta – uning turlari. Ikkinchidan, o‘zbek tilida mavjud va keng tarqalgan muqobil bo‘lsa, yangi o‘zlashma kiritilmaydi. Uchinchidan, salbiy baho beruvchi so‘zlardan qochiladi: “zaif qatlamlar” o‘rniga “ehtiyojmand guruhlar” etik jihatdan betaraf. To‘rtinchidan, ko‘p ma’noli inglizcha terminlar uchun o‘zbek tilida kontekst bo‘yicha bir nechta aniq muqobil belgilanadi.

Olingan natijalar terminologiyaga oid zamonaviy qarashlar bilan mos keladi. Ijtimoiy himoya terminlari qat’iy, o‘zgarmas birlik emas, balki ijtimoiy siyosat bilan birga rivojlanadigan birlikdir. Shu sababli ularni faqat lug‘at me’yori bilan emas, balki qo‘llanish vaziyati bilan birga o‘rganish kerak. Bu holat M.T. Kabre va R. Temmerman ko‘rsatgan terminning kommunikativ va kognitiv tabiati haqidagi qarashlarni tasdiqlaydi.

Tarjima nuqtayi nazaridan esa natijalar formal va dinamik ekvivalentlik o‘rtasidagi muvozanat masalasini ko‘rsatadi. Masalan, social insurance formal jihatdan “ijtimoiy sug‘urta” deb berilishi mumkin, aholiga mo‘ljallangan matnda esa “davlat ijtimoiy sug‘urta tizimi” tarzida kengroq izoh talab qilinadi. Me’yoriy hujjat va ilmiy matnda esa barqaror, yagona termin ustuvor bo‘lishi kerak. Demak, terminni unifikatsiya qilish tarjimon ixtiyorini cheklash emas, balki uni aniq tanlov mezonlari bilan ta’minlashdir.

Muhim masalalardan biri terminlarni unifikatsiya qilishdir. Unifikatsiya uch bosqichni o‘z ichiga oladi: terminni tanlash va uning ta’rifini aniqlash; terminning shakliy va semantik izchilligini ta’minlash; uning boshqa tillardagi rasmiy

muqobillarini standartlashtirish. Bu bosqichlar amalga oshirilmasa, bir vazirlik hujjatida bir variant, boshqasida ikkinchi variant qo‘llanib, aholi va mutaxassislar o‘rtasida tushunmovchilik yuzaga keladi.

Shu bilan birga, tadqiqotning cheklovlarini ham qayd etish lozim. Tahlil asosan me’yoriy hujjatlar, lug‘atlar va xalqaro tashkilotlar materiallariga tayandi. Terminlarning ommaviy axborot vositalari va kundalik muloqotda qanday qo‘llanishi, ularning chastotasi korpus asosida o‘lchanmadi. Taklif etilayotgan milliy terminlarni mutaxassislar va foydalanuvchilar o‘rtasida so‘rov orqali sinash keyingi tadqiqotlarning vazifasi hisoblanadi.

XULOSA

Globallashuv sharoitida o‘zbek tilidagi ijtimoiy himoya terminologiyasi sovet davri kalkalari, xalqaro hujjatlar orqali kirgan anglitsizmlar va milliy so‘z yasash vositalari bilan yaratilgan birliklardan iborat murakkab tizim sifatida shakllanmoqda. Tahlil natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Ingliz tilidan kirayotgan terminlar o‘zbek tilida transliteratsiya, kalkalash, semantik torayish, semantik kengayish va funksional moslashtirish yo‘llari bilan transformatsiyaga uchraydi. Eng ko‘p muammo semantik torayish va kengayish holatlarida yuzaga keladi.

2. Bir tushuncha uchun bir nechta variantning qo‘llanishi, ayniqsa social protection, social assistance va social insurance terminlarining aralashtirilishi tushunchalar ierarxiyasini buzadi.

3. Benefit, support, allowance kabi ko‘p ma’noli inglizcha terminlar o‘zbek tilida kontekstga qarab turli muqobillar bilan beriladi. Lug‘atlarda bu ma’nolarni aniq farqlash zarur.

4. Milliy termin yaratishda aniqlik, tizimlilik, bir ma’nolilik, tilning ichki imkoniyatlariga tayanish, etik betaraflik va me’yoriy hujjatlar bilan muvofiqlik asosiy mezon bo‘lishi lozim.

Amaliy taklif sifatida ijtimoiy himoya terminlarining ikki tilli izohli terminologik lug‘atini yaratish, unda har bir termin uchun ta’rif, tavsiya etilgan muqobil va qo‘llanish konteksti berish hamda terminlarni rasmiy hujjatlarda yagona shaklda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Universal Declaration of Human Rights. Adopted by United Nations General Assembly resolution 217 A (III) of 10 December 1948. URL: https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights.
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. URL: https://constitution.uz/oz/clause/index

3. Social Protection Floors Recommendation, 2012 (No. 202). – Geneva: International Labour Organization, 2012.

4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 164 b.

5. Madvaliyev A. O‘zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 384 b.

6. Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 1999. – 247 p.

7. Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins, 2000. – 258 p.

8. Nida E.A., Taber C.R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden: E.J. Brill, 1982. – 218 p.

9. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – 292 p.

10. Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words. – New York: Oxford University Press, 1997. – 328 p.

11. Elmirzayeva M.D. Ijtimoiy himoya terminlarini tartibga solish masalasining lingvistik asoslari // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. – Urganch, 2024. – № 5/4. – B. 124–129.

12. Elmirzayeva M.D. Ingliz va o‘zbek tillardagi ijtimoiy himoya terminlarining struktur tahlili // So‘z san’ati xalqaro jurnali. – Toshkent, 2024. – № 7/2. – B. 43–49.

SPONTANEOUS ONLINE SHOPPING AS A STRESS-COPING MECHANISM Alena Garber., Railya Kereyeva	6
HARBIY XIZMATCHILAR FAOLIYATIDA IJOBIY IMIJINING PSIXOLOGIK JIHATLARI Ravshanov Lochinbek Urinovich	14
ALFRED ADLER INDIVIDUAL PSIXOLOGIYASIDA SHAXS SIBLING MAQOMI TALQINI G‘ayibova Nargiza Anorbayevna	20
QANDLI DIABETGA CHALINGAN SHAXSLARDA EMOTSIONAL BARQARORLIK VA INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING O‘ZARO ALOQADORLIGI Sadikova Umida Botirovna	27
O‘QITUVCHILARDA KASBIY STRESSNING YUZAGA KELISHIGA TA’SIR ETUVCHI INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK OMILLAR Konratbaeva Ayjamal Bazarbaevna	35
OLIY TA’LIMDA SOG‘LOM PSIXOLOGIK MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi	43
O‘SMIRLIK DAVRIDA INKLYUZIV TA’LIM MUHITIDA IJTIMOIY TOLERANTLIKNING PSIXOLOGIK MOHIYATI Mirsidikova Aziza Mirvohidovna	50
HARBIY XIZMATCHILARDA KASBIY DEFORMATSIYANI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK TEXNOLOGIYALARI Qodirov G‘olibjon Tolibjon o‘g‘li	63
TA’LIM JARAYONIDA DEONTOLOGIK TAMOYILLAR ASOSIDA NIZOLARNI BOSHQARISH Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	70
PEDAGOGIK TAFAKKUR TARIXIDA FIKR TARBIYASI: YONDASHUVLAR VA ZAMONAVIY TA’LIMDA QO‘LLANISH IMKONIYATLARI Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna	78

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING LINGVOMETODIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH **Yuldasheva Umida Maxmudovna**	**85**
KURSANT VA TALABALARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA EKSTREMAL SHAROITLARDA HARAKAT QILISH KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI **Yulliyev Nuriddin Jumanazarovich**	**92**
SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANGAN HOLDA TIBBIYOT OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING AXBOROT KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI ISHLAB CHIQISH TEXNOLOGIYASI **Sayfullaeva Dilbar Izzatillaevna**	**101**
KASBIY MADANIYATSHUNOSLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING IMKONIYATLARI **Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi**	**110**
“TARBIYA” DARSLARIDA RAQAMLI HIKOYALAR ORQALI O‘QUVCHILARDA HALOLLIK, MAS’ULIYAT VA MEHR-OQIBAT FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISH **Abdullayeva Surayyo Babojonovna**	**119**
O‘ZBEKISTONDA KIMYO O‘QITISH METODIKASINING SHAKLLANISHI VA TARIXIY TARAQQIYOTI **Sulaymonqulov Islomjon**	**131**
GLOBALLASHUV SHAROITIDA IJTIMOIY HIMOYA TERMINOLOGIYASINING TRANSFORMATSIYASI VA UNI MILLIY TERMIN SHAKLIDA TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI **Elmirzayeva Maftuna Do‘smurod qizi**	**136**

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI SHE’RIY ASARLAR TAHLILIGA TAYYORLASHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI 145
Mullayeva Madina Qudratovna